

ABDULLA QAHHOR IJODINING ROMANTIK USLUBDAGI TARANNUMI

Nilufar Karomova Isomiddinovna.

*Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani
16- umumiy o'rta ta'lim maktabining
ijodiy-madaniy masalalar
bo'yicha targ'ibotchisi*

XX asr o'zbek milliy adabiyotining yorqin siymolaridan biri Abdulla Qahhor umri poyoniga " Ozgina o'zim haqimda", sarlavhali tarjimai holida, " O'tmishdan ertaklar" avtobiografik qissasida, " Maktabdoshlar" kabi maqolalarida o'zi haqida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan.

Adib ilk romani " Sarob" ni yozgan vaqtda Til va adabiyot ilmiy- tekshirish instituti talabasi edi. Qator hajviyalar, hikoyalar, qissalar ustida ishlar bilan barobar 23 yoshida " Sarob" dek jiddiy asarga qo'l urish va mo'tabar qahhorshunos Ozod Sharafiddinov aytganiday, " O'tgan kunlar" dan keyingi " ikkinchi cho'qqi" sanalmish roman yaratish chindan- da mo'jiza bo'ldi. Asar 1934- yili O'zbekiston Respublikasining o'n yilligi munosabati bilan e'lon qilingan davlat konkursida ikkinchi mukofot bilan taqdirlandi. Uni kitobxonlar xuddi bayramdek xush qabul qildi.

"Sarob"da muallifning o'zi bevosita hayotda, birinchi galda, universitetning ishchilar va pedagogika fakultetlarida, qisman, Qo'qonda internat va bilim yurtida o'qigan, " Yangi Farg'ona", " Qizil O'zbekiston" tahririyatlarida, komsomol rahbariyatida ishlagan kezlari duch kelgan davralarda yuz bergan voqea - hodisalar qalamga olinadi. Roman ikki qahramon - talaba Saidiy bilan Munisxonning biri tashqarida, ikkinchisi ichkarida turib, bir paytning o'zida universitet eshigini baravariga ochish voqeasi bilan va ularning ko'ngillarni entiktiruvchi sevgi kechinmalari, talabalik tashvishlarining g'oyat jozibador, maroqli ifodasi bilan davom etadi. Adib asarida o'sha kezlardagi butun mamlakatda kechayotgan " ikki to'lqin" kurashi, mafkuraviy - siyosiy jazava jarayonlarini jonli gavdalantiradi.

" Sarob" dagi sevishganlar ham har jihatdan barkamol ma'rifatli yoshlar - XX asrning 20 - yillari yoshlari. Qodiriy qahramonlari duch kelgan " ota- ona orzusi" kabi to'siqlardan xoli erkin muhabbat sohiblari. Ular bemalol uchrashish, birga dars qilish, dil izhorlarini ayta olish imkoniga ega. Munisxon royalda mashqlar chaladi, ikki yosh jahonoy muammolar yuzasidan bahslashishadi, bora- bora bir-biriga ovro'pachasiga " senlab" muomala qilishga o'tadi, ammo hech qachon sharqona odob, ibo doirasidan chetga chiqishmaydi. Ular mana shunday yangicha pokiza munosabatlarni hazm qila olmaydigan kimsalar g'iybatidan nadomat chekadilar...

Adib tarjimai holida " Sarob" ni kitobxon xush qabul qildi, lekin ba'zan arzon shuhratparastlik, ba'zan esa to'g'ridan to'g'ri jaholat natijasi bo'lgan tanqid ostida qolib ketdi ...

Nihoyat adibning orzu-armonlari ushaladigan, "Sarob" ning chinakam bisotini , mohiyatini ochib ko'rsatadigan zamonlar keldi.

"Sarob" yangi davr adabiyotining yirik to'laqonli nodir asari sifatida xazon bo'lgan muhabbat, uvol bo'lgan umr qissasi bo'lib, aslida baxt uchun tug'ilgan , ammo tabiatdagi ojizliklar tufayli hayotda chalg'igan , o'rtangan qalblarning filiali qismati ruhiy iztiroblari haqidagi umumbashariy ahamiyatga molik asardir.